



"TASDIQLAYMAN"

O'zbek geologiya qidiruv" AJ  
Boshqaruv raisi  
Sh.P.Alimov

2024 yil 13 " dekabr

**"O'zbek geologiya qidiruv" aksiyadorlik jamiyat tarkibiy bo'linmalar Inson resurslarini rivojlantirish va rivojlantirish xizmati xodimlari ishtirokida o'tkazilgan o'quv seminar  
12 - sonli BAYONI**

2024 yil 11 dekabr

Toshkent shahri

**Ma'ruzachilar:** Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo'lim boshlig'i, Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish bo'lim boshlig'i

**Qatnashganlar:** Jamiyat Tarkibiy bo'linmalari Inson resurslarini boshqarish va rivojlantirish xodimlari **14** nafar.

O'quv seminari videokonferensialaloqa tarzida o'tkazildi

**Seminar mavzusi.**

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida qarori"**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi PQ-81-son qaroriga 2-ilova **Korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tartibi to'g'risida NIZOM tasdiqlangan bo'lib bu nizom doirasida haraklanib tashkilotning Korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi tizimning samaradorligini baholashni imkonini beradi.**



Reyting baholash alohida indikatorlardan tashkil topgan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiriladi:

birinchi yo'nalish - davlat tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha mexanizm va huquqiy asoslarning yaratilganligi hamda amaliyotga tatbiq etilganligi;

ikkinchi yo'nalish - korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

uchinchi yo'nalish - davlat tashkilotlari rahbarlarining korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni ko'rsatuvchi xatti-harakatlarining mavjudligi;

to'rtinchi yo'nalish - xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardorligi hamda ushbu sohada bilim va ko'nkmalarini oshirish bo'yicha tadbirlarning amalga oshirilganligi;

beshinchi yo'nalish - korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli soha yoki tarmoq kesimida aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ushbu illatga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan targ'ibot tadbirlarining samaradorligi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligi 0 balldan 100 ballgacha reytingda baholanib, faoliyat samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" toifalarga ajratiladi.



Bunda, indikatorlarni bajarish orqali:

81 balldan 100 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi - "yaxshi";

55 balldan 81 ballgacha to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi - "qoniqarli";

55 dan past ball to'plagan davlat tashkiloti faoliyat samaradorligi - "qoniqarsiz" deb topiladi.

Reyting baholash yo'nalishlari bo'yicha ballar quyidagicha taqsimlanadi:  
 birinchi yo'nalish — maksimal 35 ball;  
 ikkinchi yo'nalish — maksimal 30 ball;  
 uchinchi yo'nalish — maksimal 15 ball;  
 to'rtinchi yo'nalish — maksimal 15 ball;  
 beshinchi yo'nalish — maksimal 5 ball.

Yakuniy ballar mazkur Nizomga keltirilgan Reyting baholash yo'nalishlari va indikator ko'rsatkichlaridagi ballarni bir-biriga qo'shib chiqish orqali aniqlanadi.

Davlat tashkilotlari har yili 25-fevralga qadar Agentlik tomonidan yuborilgan yakuniy reyting baholash natijalarini ko'rib chiqadi hamda zarurat bo'lganda o'z taklif va e'tirozlarini Agentlikka taqdim qiladi.

Agentlik davlat tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan taklif va e'tirozlarini puxta tahsil qiladi va har yili 1-martga qadar reyting baholashni o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik haqida qaror qabul qiladi.

Agentlik reyting baholash yakunlariga ko'ra korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi "yaxshi", "qoniqarli" va "qoniqarsiz" bo'lgan davlat tashkilotlari ro'yxatini har yili 1-mart kuni Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashga kiritadi hamda o'z rasmiy-veb saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qiladi.

**Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat  
bo'lim bosh mutaxassisi**

**Q. Majidov**